


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....	7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....	18
4. Pulat Fozilov INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....	23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....	28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....	45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MISOLIDA).....	54
---	----

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI: 2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....	59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....	64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

PEDAGOGIKA

Usanova Zulfiya Bozorovna-Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar”

kafedrası o‘qituvchisi

**HOZIRGI INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O'RTA TA'LIM
MISOLIDA)**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362914>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada zamonaviy innovatsion ta'lim sharoitida pedagogik hamkorlikni rivojlantirishning didaktik tizimi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida pedagogik hamkorlikning didaktik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali o'zaro ta'sirni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, nostandart pedagogik yondashuvlarni joriy qilish hamda innovatsion pedagogik faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq qilish zarurlari aniq dalillar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlari: innovatsion ta'lim, pedagogik hamkorlik, didaktik tizim, oliy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy kompetensiya, ijodkorlik, pedagogik faoliyat, metodologiya, ta'lim sifatini oshirish.

Усанова Зулфия Бозоровна-Термезский государственный инженерно-
агротехнологический университет

"Социально-гуманитарные науки"

преподаватель кафедры

**ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
СОТРУДНИЧЕСТВА В СОВРЕМЕННОЙ ИННОВАЦИОННОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ (НА ПРИМЕРЕ ВЫСШЕГО И ОБЩЕГО СРЕДНЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ)****АННОТАЦИЯ**

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализирована дидактическая система развития педагогического сотрудничества в условиях современного инновационного образования. В частности, освещены дидактические механизмы педагогического сотрудничества в процессе формирования профессиональных компетенций будущих учителей профессионального образования в высших учебных заведениях и

общеобразовательных школах. В ходе исследования на основе конкретных фактов изложена необходимость обеспечения эффективного взаимодействия между преподавателем и учащимися, повышения качества образования, внедрения нестандартных педагогических подходов и применения на практике форм инновационной педагогической деятельности.

Ключевые слова: инновационное образование, педагогическое сотрудничество, дидактическая система, высшее образование, общее среднее образование, профессиональная компетенция, творчество, педагогическая деятельность, методология, повышение качества образования.

Usanova Zulfiya Bazarovna -
Termez State Engineering and
university of agricultural technologies
"Social and Humanitarian Sciences"
teacher of the department

DIDACTIC SYSTEM FOR THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COOPERATION IN THE CURRENT INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT (ON THE EXAMPLE OF HIGHER AND GENERAL SECONDARY EDUCATION)

ANNOTATION

In this article, the didactic system of developing pedagogical cooperation in the context of modern innovative education is analyzed from a scientific and theoretical point of view. In particular, the didactic mechanisms of pedagogical cooperation in the process of forming the professional competencies of future teachers of vocational education in higher and secondary educational institutions are highlighted. During the study, the necessity of ensuring effective interaction between teachers and students, improving the quality of education, introducing non-standard pedagogical approaches, and introducing innovative forms of pedagogical activity into practice is presented based on concrete evidence.

Keywords: innovative education, pedagogical cooperation, didactic system, higher education, general secondary education, professional competence, creativity, pedagogical activity, methodology, improving the quality of education.

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish bilan birga kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratildi. O'qitish metodikasini takomillashtirish va optimallashtirish, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini integrativ qo'llash bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borildi.

Ta'lim-tarbiya, ilm tomon intilish, tafakkur rivoji uchun jonkuyarlik bo'lmaganida insoniyat o'zining hozirgi taraqqiyotiga erisha olmagan bo'lardi. Bugun butun dunyo xalqlari salomatligiga jiddiy tahdid solgan koronavirus bilan bog'liq hozirgi murakkab holat oldida inson aqli ojiz qolayotgani hech kimga sir emas. Bu esa bizga bir haqiqatni anglatmoqdaki, odamzod butun borliq sirlarini o'rganishi uchun hali ko'p izlanishi kerak. Asosiy vazifa esa mazkur global muammo farzandlar ta'lim-tarbiyasi yo'lga to'siq bo'la olmasligini ta'minlashdir.

Prezidentimizning 2020-yil 1-oktyabr O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak" [12] deb ta'kidladi va sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlarga, o'qituvchilar ishini yengillashtirish maqsadida kelgusi yilda ta'limning barcha tizimida raqamlashtirish ishlarini tugallab, "Raqamli va xavfsiz maktab", "Onlayn maktab", "Elektron darslik", "Elektron kundalik" kabi onlayn ta'lim

platformalarining keng miqyosda joriy etilishini, 2020-yil soʻngiga qadar maktablarni yuqori va keng qamrovli internet tarmogʻiga ulash 100 foizga yetkazilishi haqida bildirdi.

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI

Turli mualliflar tomonidan eʼlon qilingan pedagogik hamkorlikni rivojlantirish toʻgʻrisidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi.[1]

Taniqli olim N.A.Muslimovning taʼkidlashicha, ijodkorlikni tadqiq qilish mustaqil taʼlim olish va ijodiy individuallikni rivojlantirish maqsadida ijodkorlik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishning ijodiy jarayonni innovatsion amaliyotda modellashtirish (aynan yaratuvchanlik faoliyatda shaxsning kreativ potentsiali rivoj topadi) bilan bogʻliq maqbul shakllarini aniqlash imkonini berdi. Bu oʻrinda yuzaga keladigan murakkablik ijodiy hamkorlik faoliyatini yaxshiroq tashkil qilish hamda boshqarish bilan belgilanadi, zero, bunda ongli ijodiy individuallikning toʻgʻridan-toʻgʻri anglanmaydigan jarayonlari ham shakllanadi. [2]

Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilari ijodkorligini rivojlantirishning mazmuni, didaktik xususiyatlari, pedagogik shart-sharoitlarini asoslash, ularning samaradorligi va mohiyatini ochib berishdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni alohida taʼkidlash joizki, Pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili insoniylik xarakteriga ega boʻlgan shaxsiy bilishga asoslangan onglilikdir. Shunga koʻra hamkorlikka asoslangan taʼlim jarayoni uni tahlil etishda tadqiqotchilardan yangicha fikrlashni talab qiladi. Oʻqituvchilar va oʻquvchilar ham taʼlim jarayonining faol subyektlariga aylanadilar. Buning uchun taʼlim-tarbiya jarayoni kuzatish maydoniga aylanishi lozim. Buning natijasida nazariy bilimlar va amaliy tajribalar oʻqituvchidan oʻquvchiga oʻtkazilmasdan, mantiqiy tafakkurga tayanilgan holda oʻzaro muloqot asosida bir-birlariga taqdim etiladi va oʻzlashtiriladi. [11]

Ikkinchi tamoyil toʻldiruvchilik tamoyilidir. Mazkur gʻoyaning asosini qarama-qarshilik rivojlanishning negizi sifatida oʻzaro bir-birini toʻldirish asosida oʻquvchilarning bilimlarini boyitish tashkil etadi. Bu jarayonda oʻqituvchining ochiq monologi oʻrnini ishchan, fikriy muloqot egallaydi. Oʻzaro birgalikdagi harakat, sherikchilik, rivojlanuvchi shaxsning mustaqilligiga asoslanib yoʻnalish olish kabilar tashkil etadi.

Uchinchi muhim tamoyil taʼlim-tarbiyaviy axborotlarning ochiqqligi tamoyilidir. Ochiqlik oʻzining koʻplab aniqlovchilari orasida yana bir muhim sifatga ega boʻlgan pedagogik hodisadir. Ochiq xarakterdagi bilimlar oʻziga xoslikka ega boʻlib, oʻz hududida biluvchi shaxsga nisbatan ochiqlik kasb etadi. Oʻquvchi koʻz oʻngida uning bilish faoliyati jadalligiga asoslangan holda bilimlar dunyosi namoyon boʻladi. Bu bilimlar va oʻquvchining bilish faoliyati uning asosiy qadriyati hisoblanadi. Bunday sharoitda oʻqituvchi oʻquvchilarga bilimlarni tayyor holda taqdim etmaydi, balki ularga turlicha aqliy operatsiyalarni bajartirish orqali yangi bilimlarni taqdim etadi.

Oliy kasbiy taʼlimning asosiy maqsadi nafaqat bilim, koʻnikmalarni amaliyotga tatbiq etish, balki kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan vaziyatlarda oʻziga xos va innovatsion qarorlar qabul qilishga qodir boʻlgan malakali bitiruvchini tayyorlashdir. Shunga koʻra, boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish jarayoni yetarlicha oʻrganilmaganligi, nazariy va amaliy ahamiyati ilmiy asoslanmaganligi, masalaning ilmiy-pedagogik va amaliy nuqtai nazardan muhimligi, ijtimoiy-pedagogik, va boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarini tayyorlash uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Pedagogik faoliyat amaliyoti koʻrsatishicha, oʻqitishning mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, ilgorigidek oʻquv fanlari boʻyicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, koʻnikma va malakalarni shakllantirishdan iborat boʻlib qolmoqda. Oqibatda talabalarda haddan ziyod axborotning behuda jamgʻarilayotganligi, taʼlimning befoydaligi va uning haqiqatdan uzoqligi kabi fikrlar paydo boʻladi. Talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgariidan toʻplanib kelgan axborotlarnigina oʻzlashtirish maqsadi qoʻyilgandek boʻlib qoladi. Kasb taʼlimiga oid zamonaviy adabiyotlarda pedagogik jarayon quyidagi oʻzaro bogʻliq boʻlgan komponentlar tizimidan iborat deb taʼkidlanadi [3]:

- 1) faoliyatning maqsadlari;
- 2) taʼlim beruvchi;

- 3) ta'lim oluvchi;
- 4) faoliyat mazmuni;
- 5) faoliyat shakllari;
- 6) faoliyat vositalari va usullari;
- 7) faoliyat natijasi.

Faollashtirilgan (kontekstli) ta'limda o'qitishning yangi zamonaviy shakllari hamda an'anaviy shakllari uyg'unlashtirilgan holda mavjud bo'lib, o'quv faoliyatida real kasbiy faoliyatga xos bo'lgan vaziyatlarni modellashtirish imkoni yaratiladi, bunda ta'lim va tarbiya jarayonlari orasidagi uzilish barham topadi, talaba o'quv va bo'lajak kasbiy faoliyatlari subyekti sifatida o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, zamonaviy mutaxassis modeliga mos keladigan kasbiy kompetentligi shakllanib boradi.

Demak, shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradigan, pirovardida ta'lim natijasi sifatida ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini shakllantirishni ta'minlaydigan ta'lim tizimlarini ishlab chiqishga faqatgina ta'lim jarayonining pedagogik asoslarini, uning barcha elementlarini tubdan yangilash orqali erishish mumkin.

Umuman olganda yangi tipdagi ta'lim tizimida o'quv ma'lumotlari ko'rinishida ifodalangan ilgari tajribalarni o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdan bo'lajak kasbiy faoliyatda duch kelinadigan vaziyatlarga tayyor bo'lishga qaratilgan, umuman olganda kelajakka yo'naltirilgan ta'limga o'tish ko'zda tutiladi. Ta'lim oluvchi faoliyatining maqsadi axborot ko'rinishiga ega bo'lgan ijtimoiy tajribaning ma'lum bir qismini o'zlashtirish emas, avvalambor bilimlardan foydalangan holda bo'lajak kasbiy faoliyatini amalga oshira bilish hamda butun umri davomida yangi bilimlarni egallab bora olish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining ijodkorligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shartlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin [6]:

- o'zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo'ladigan aniq ifodalangan kasbiy yo'naltirilganlik, bilimlarni egallash faolligi;
- pedagogik faoliyatda ko'p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayonning barcha voqea va hodisalarini, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantirish;
- jamiyat madaniyatini va jahon madaniyatni egallaganlik, ta'lim olish jarayonini anglaganlik, o'zining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganlik, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish kabi keng doirani o'z ichiga olgan mustaqil ta'limni tashkil etish;
- talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni individuallashtirish orqali aqliy va amaliy faoliyatida o'zining individual uslublariga ega bo'lish imkonini beradigan ta'limni tashkil etish.
- kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan — bo'lishi lozim.

XULOSA

1. Kasb ta'limida pedagogik hamkorlik dinamik hodisa, murakkab ochiq tizim, shaxs hayotiy dasturi sifatida namoyon bo'ladi.

2. Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, hayotiy maqsadlarini ro'yobga chiqaradi, u o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni yengadi, kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'z pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqadi.

3. Umuman olganda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv faoliyati uchun birinchidan innovatsion yo'naltirilgan, ikkinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individuallik sifatida o'ziga yo'naltirilganlikka xos bo'ladi.

4. Shunday qilib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi kasbiy-pedagogik va pedagogik hamkorlikning didaktik tizimi kompetentligini rivojlantirish faoliyatini egallash uchun zarur va yetarli shartlar kerak bo'ladi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Mamatqulov A.N. Kasbiy ta'limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. "Zamonaviy ta'lim" ilmiyamaliy ommabop jurnal – Toshkent, 2019. №12(85). 11-17 betlar.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 275 b.
3. N.A.Muslimov, Z.T.Raximov, A.A.Xo'jaev, H.Sh.Qodirov. Ta'lim texnologiyalari. Darslik, – T.: «Voriz — nashriyot», 2019. 337-bet.
4. Raximov Z.T. — Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi, Monografiya. – Toshkent: "Voriz" nashriyoti. – 2019. 116 b.
5. Mengliyev B. PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – С. 554-556.
6. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.
7. Дилова Н.Г. (2017). Ўқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг ўрни. Замонавий таълим. 1-сон.
8. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.
9. Кулиева Ш.Х., Расулова З.Д. (2016). Формирование профессиональнопедагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий. Молодой учёный, №8 (112), С. 977-978.
10. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
11. Dilova N.G. (2015). Situation of cooperation and the problems solved in it. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2: 13, pp. 102-103.
12. Pedagog.uz sayti

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000